

ISTE'MOL SAVATCHASI VA YASHASH UCHUN ZARUR MIQDOR KO'RSATGICHLARI TAHLILI

*Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi
10-25 guruh o'quvchisi Tursunaliyev Abror
2-24 guruh o'quvchisi Toshpo'latov Abduqodir
2-24 guruh o'quvchisi Maxmudov Abdulxamid*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada MDH mamlakatlaridagi iste'mol savatchasi va yashash uchun zarur miqdor ko'rsatgichlari chuqur tahlil qilinadi va MDH mamlakatlarida yashash uchun zarur bo'lgan miqdor ko'rsatgichlari, iqtisodiy sharoitlar va aholi daromadlari bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga iste'mol savatchasi va zarur miqdor ko'rsatgichlarini yaxshilash uchun tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: iste'mol savatchasi, tannarx, xarajatlar, ijtimoiy standartlar, minimal iste'mol normasi, inflyatsiya, ish haqqi

KIRISH

Iste'mol savatchasi va yashash uchun zarur miqdor ko'rsatkichlari jahon iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega, chunki ular aholining turmush darajasini aniqlashda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini baholash imkonini beradi, iqtisodiy siyosat va resurslarni samarali taqsimlash uchun muhim ma'lumotlar beradi va global iqtisodiy barqarorlik va mamlakatlararo taqqoslashlarda asosiy o'lchov sifatida ishlatiladi. Ayniqsa MDH mamlakatlarida iqtisodiy o'sish notekisligi, narxlar darajasining o'zgaruvchanligi ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilishni muhim darajaga olib chiqadi. Ushbu hududdagi iqtisodiy tizimlar turlicha rivojlangan bo'lib, mamlakatlararo taqqoslashlar aholining yashash darajasi va iste'mol xarajatlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va ijtimoiy xarajatlar kabi omillar iste'mol savatchasi tarkibi va yashash uchun zarur miqdor ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu maqolada tadqiqot obyekti sifatida MDH mamlakatlari iqtisodiyoti, predmeti sifatida esa iste'mol savatchasi tarkibi va yashash uchun zarur miqdor ko'rsatkichlari tanlangan. Maqsad – mamlakatlararo taqqoslashlarni amalga oshirish, yashash darajasini aniqlash, aholi turmush farovonligini oshirish va iqtisodiy siyosat uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqishdir.


Tadqiqot natijalari MDH hududida aholi turmush darajasini yaxshilash, iste'mol xarajatlarini optimallashtirish va iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqola ilmiy jihatdan iqtisodiy ko'rsatkichlar, narxlar va xarajatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga

yordam beradi va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda asosiy manba sifatida foydalanilishi mumkin.

MDH mamlakatlaridagi iste'mol savatchasi va yashash uchun zarur miqdor ko'rsatgichlari iqtisodiy va ijtimoiy hayotning muhim jihatlaridan biridir. Iste'mol savatchasi, asosan, aholining kundalik hayotida zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy jihozlari va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi. Har bir mamlakatda yashash darajasi va iqtisodiy sharoitlar farqlanishi sababli, iste'mol savatchasi tarkibi ham turlicha bo'ladi. MDH mamlakatlarida yashash uchun zarur miqdor ko'rsatgichlari, asosan, aholi daromadlari, narxlar va inflyatsiya darajasi bilan bog'liq. Ushbu ko'rsatgichlar, odamlarning hayot sifatini baholashda va davlat siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy farqlar va ijtimoiy muammolar mavjudligi, iste'mol savatchasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Iste'mol savatchasi MDH mamlakatlarida narxlar va tovarlar tahlili iqtisodiy monitoringning muhim qismidir. Ushbu tahlil yordamida iste'molchilar uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning narxlari o'rganiladi. MDH mamlakatlari, jumladan O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, va boshqa davlatlarda iste'mol savatchasi tarkibi bir-biridan farq qiladi, chunki har bir mamlakatning iqtisodiy sharoitlari, madaniyati va iste'mol odatlari o'ziga xosdir. Iste'mol savatchasi odatda oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar, kiyim-kechak, uy jihozlari, transport xizmatlari va boshqa zaruriy tovarlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tovarlarning narxlari o'zgarishi esa inflyatsiya darajasini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, oziq-ovqat narxlarining oshishi iste'molchilar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. MDH mamlakatlarida iste'mol savatchasini tahlil qilish, shuningdek, iqtisodiy siyosatni shakllantirishda yordam beradi. Mamlakatlar o'rtasida narxlar farqlari va iste'mol odatlari haqida ma'lumotlar yig'ish, xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Iste'mol savatchasi tahlili orqali

MDH davlatlarida iste'mol savatchasi qiymatining so'nggi 5 yillik dinamikasi



davlatlar o'z iqtisodiyotlarini yanada mustahkamlash va fuqarolar farovonligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bu tahlil iste'molchilarni xabardor qilish va ularning xarid qilish qarorlarini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Diagrammada Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'izistonda iste'mol savatchasi qiymati hamda minimal yashash xarajatlarining solishtirmasi keltirilgan. Unda ko'rinishicha, eng yuqori ko'rsatkichlar Rossiyada bo'lib, bu mamlakatdagi narxlar darajasi va daromadlarning balandligi bilan izohlanadi. Qozog'istonda ko'rsatkichlar o'rtacha darajada, O'zbekistonda esa iste'mol savatchasi qiymati ancha past, ammo minimal xarajatlar bosqichma-bosqich oshib borayotgani seziladi. Qirg'iziston MDH ichida eng past ko'rsatkichlarga ega. Umuman olganda, diagramma MDH mamlakatlarida iste'mol savatchasi va yashash uchun zarur xarajatlar o'rtasida sezilarli tafovut borligini, ayniqsa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu tafovut kengroq ekanini

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar MDH mamlakatlarida iste'mol savatchasi tarkibi, uning o'rtacha qiymati hamda yashash uchun zarur minimal miqdor ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, Rossiya va Qozog'iston iqtisodiyoti nisbatan barqaror bo'lib, iste'mol savatchasi qiymati yuqori bo'lsa-da, o'rtacha ish haqi bu xarajatlarni qoplash imkonini beradi. O'zbekiston va Qirg'izistonda esa ish haqi ancha past, inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgani uchun iste'mol savatchasi aholining katta qismini iqtisodiy bosim ostida qoldirmoqda. Bu esa real turmush darajasining pasayishiga, xarid qobiliyatining qisqarishiga va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Tahlil shuni ko'rsatdiki, iste'mol savatchasi va minimal yashash darajasi MDH mamlakatlarida nafaqat iqtisodiy ko'rsatkich, balki ijtimoiy barqarorlikning asosiy omili hisoblanadi. Ish haqi darajasi, narxlar barqarorligi, inflyatsiya tezligi va davlatning ijtimoiy siyosati ushbu ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir qiladi. Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri yuqori bo'lgan davlatlarda aholining real daromadi pasayib, iste'mol savatchasi talablariga javob berish qiyinlashadi. Shuning uchun ham iste'mol savatchasini aniqlashda doimiy monitoring va iqtisodiy sharoitdan kelib chiqadigan yangilanishlar muhim ahamiyatga ega.

Ko'rsatilgan miqdorlarni yaxshilashga bir nechta tavsiyalar foydali bo'lishi mumkin. Masalan iste'mol savatchasini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish. Mavjud savatcha ko'pincha real bozor narxlari va iste'mol tuzilmasiga mos kelmaydi. Har 6–12 oyda uni qayta ko'rib chiqish va yangilab borish zarur. Keyingisi bu O'rtacha ish haqini iste'mol savatchasi qiymati bilan muvofiqlashtirish. Ish haqi o'sishi inflyatsiya darajasidan kamida 2–3% yuqori bo'lishi kerak, aks holda real daromadlar pasayishda davom etadi. Mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali asosiy iste'mol tovarlarini arzonlashtirish ham foydali bo'lishi mumkin chunki ichki

ishlab chiqarishning yetarli bo'lmashligi asosiy oziq-ovqat narxlarini oshiradi. Shu sababli strategik mahsulotlar bo'yicha ichki yetkazib beruvchilarni qo'llab-quvvatlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulov, B. (2021). "Iste'mol savatchasi va aholining yashash darajasi: MDH mamlakatlari bo'yicha statistik tahlil." O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyot
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Aholi farovonligi va iste'mol narxlarini indeksi bo'yicha yillik hisobotlar". – Toshkent, 2024.
3. Abdullaeva, D. (2015). "MDH mamlakatlarida yashash darajasi va iste'mol savatchasi: Tahlil va prognozlar." O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali
4. Murodov, A. (2019). "Yashash uchun zarur miqdor ko'rsatgichlari va ularning MDH mamlakatlaridagi o'zgarishi." Iqtisodiy tadqiqotlar
5. Qozog'iston Respublikasi Milliy statistika byurosi. "Aholining yashash darajasi va iste'mol xarajatlari statistik to'plami". – Ostona, 2024.
6. Abdurahmonov Q.X. "Iqtisodiyot nazariyasi". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.